

Grafika – tasviriy san’atning bir turi bo’lib, unda tasvir chiziqlar, konturlar, shtrixlar va dog’lar yordamida hosil bo’ladi. Odatda, rasm bitta rangda chiziladi. “Grafika” so’zi “yozaman, chizaman” degan ma’nolarni anglatadi.

Grafika tasvirini qalam, ko’mir, bo’r, tush, ruchka, flomaster bilan yaratish mumkin.


Shtrix – bu chizgi, qisqa chiziq. Shtrixlar ingichka va qalin, uzun va qisqa, egik va kesishgan bo’lishi mumkin.



Shtrixlashni turli yo’llar bilan bajaring




**Gorizontal
shtrixlar**



**Vertikal
shtrixlar**



**Egik
shtrixlar**



**Kesishgan
shtrixlar**

Rasm chiziq bilan boshlanadi. Chiziq rasmning kontur shaklini hosil qiladi.



**Chiziqlar qanday bo’ladi?
Sizningcha, chiziqlar kayfiyatni
ifodalashi mumkinmi?**

Shaklli guldon

5



1



2



3



4



5



6



7



8



9



10



11

